

## “MILLIY MUSIQA TA’LIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”

**Mirzayeva Komila Sheraliyevna**

Termiz ixtisoslashtirilgan maktabi

Musiqa nazariya va xor dirijorligi

bo‘limi yetakchi o‘qituvchisi

Tel +998 90 9876014

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy ishda O‘zbekiston Respublikasida milliy musiqa ta’limining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Musiqa ta’limi yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy qadriyatlarni saqlashda va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari ta’lim tizimiga yangi chaqiriqlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu ishda musiqa ta’limining ijtimoiy-psixologik va ma’naviy-axloqiy ahamiyati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi asosiy qonunlari va qarorlarining musiqa ta’limiga ta’siri tahlil etiladi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Milliy musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati haqida fikrlar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Milliy musiqa ta’limi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, globallashuv, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim qonunlari, pedagogik kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlik, musiqa ta’limining ijtimoiy-psixologik ahamiyati, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, musiqa ta’limining rivojlanish istiqbollari.

**Аннотация:** В данной научной работе анализируется современное состояние и перспективы развития национального музыкального образования в Республике Узбекистан. Музыкальное образование играет важную роль в духовно-нравственном воспитании подрастающего поколения, в сохранении и развитии

национальных ценностей. Вместе с тем, процессы глобализации ставят новые вызовы перед системой образования. В данной работе анализируется социально-психологическое и духовно-нравственное значение музыкального образования, а также влияние основных законов и постановлений Республики Узбекистан в области образования на музыкальное образование. Также разрабатываются практические рекомендации по внедрению инновационных педагогических технологий, совершенствованию учебных программ, повышению квалификации педагогических кадров, развитию международного сотрудничества. Рассматриваются роль и значение национальной музыки в воспитании молодежи.

**Ключевые слова:** Национальное музыкальное образование, инновационные педагогические технологии, духовно-нравственное воспитание, глобализация, образовательное законодательство Республики Узбекистан, подготовка педагогических кадров, международное сотрудничество, социально-психологическое значение музыкального образования, совершенствование учебных программ, перспективы развития музыкального образования.

**Annotation:** This scientific work analyzes the current state and development prospects of national music education in the Republic of Uzbekistan. Music education plays an important role in the spiritual and moral upbringing of the younger generation, in the preservation and development of national values. At the same time, globalization processes pose new challenges to the education system. This work analyzes the socio-psychological and spiritual and moral significance of music education, as well as the impact of the main laws and resolutions of the Republic of Uzbekistan in the field of education on music education. Also, practical recommendations are developed for the introduction of innovative pedagogical technologies, improving curricula, improving the skills of pedagogical personnel, and developing international cooperation. The role and importance of national music in the education of youth are considered.

**Keywords:** National music education, innovative pedagogical technologies, spiritual and moral education, globalization, educational laws of the Republic of Uzbekistan,

training of pedagogical personnel, international cooperation, socio-psychological significance of music education, improvement of curricula, development prospects of music education.

Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lami juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ijobatini topgan. Musiqa, ayniqsa, o'quvchilarning aqliy va axloqiy estetik jixatdan kamol topishiga rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega. Musiqa insoniyatning umumbashariy tili hisoblanadi, o'zbek musiqasi esa O'zbekiston madaniyatining kalitlaridan biridir. Bugun Toshkent va mamlakatimizning boshqa shaharlarida o'zbek zamonaviy estradasi, xalq musiqasi, o'zbek neoklassik musiqasi, o'zbek musiqasining maxsus janrlari – “shashmaqom” va “lazgi” ni eshitish mumkin. Milliy musiqa ta'limining hozirgi holati va rivojlanishi haqida quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Milliy musiqa O'zbekiston ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi. U maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlarida o'qitilmoqda. Bolalar bog'chalarida milliy kuy-qo'shiqlar orqali estetik tarbiya beriladi. Musiqa darslarida milliy kuylar, ashulalar, folklor namunalari o'rgatiladi. Ular orasida Uspenskiy, R. Glier nomidagi musiqa maktablari mavjud. San'at va madaniyat institutlari, konservatoriyalar milliy musiqa bo'yicha kadrlar tayyorlaydi.

Musiqqa darsi o'zining ajoyib xususiyatlari bilan boshqa fanlardan farq qiladi: Birinchidan, musiqqa darsi, musiqqa tarixi, nazariyasi, cholg'u ijrochiligiga doir turli namunalar, xor mashg'ulotlari, musiqqa savodi, musiqqa tinglash, musiqqa asarlari tahlili, o'quvchilar cholg'u asboblariida ijro etish, ritmik harakatlar bajarish kabi elementlaridan iboratdir.

Milliy musiqqa o'qitilishida asosiy cholg'ular (doira, dutor, rubob, gijjak) va xalq og'zaki ijodiyoti (maqom, ashula) o'rgatiladi.

Musiqiy ta'lim mazmuni umumiy madaniyatining rivojlanishiga va jamiyatning musiqqa san'atiga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. Shuning uchun musiqiy ta'lim mazmuniga kiruvchi musiqiy bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, musiqqa materiallari, ta'lim usullari va shakllarini tizimlashtirish lozim.

Prezident qarorlari asosida milliy musiqqa ta'limini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi, milliy qadriyatlarining saqlanishi, yosh avlodni estetik tarbiyalash va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash yo'lidagi muhim jarayondir. Quyida davlat qarorlarida bu o'z aksini topib rivojlanib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 20-noyabrda "Bolalar musiqqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016–2020 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi" to'g'risida"gi PQ-2435-son qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "O'zbek milliy estrada san'atini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ(2021 yil), 2021-yilda tashkil etilgan "Maqom san'ati markazi", "O'zbekiston madaniy merosi" loyihalari bu sohaning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Ayniqsa (PQ-112-son 02.02.2022.) Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi qarorlari ushbu sohani shiddat bilan jadal rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Ushbu qarorlar natijasida Milliy estrada san'atini asrab-avaylash va rivojlantirish, san'atkorlarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yosh iste'dodlarni aniqlash va tarbiyalash ijodiy maktablar tashkil

etilishi orqali yoshlar uchun imkoniyatlar yaratildi. Estrada san'atini milliy ruhda rivojlantirishga urg'u berildi. Televizion loyihalar orqali yangi iste'dodlar ommaga tanitildi.

Milliy musiqa san'atining o'qitilishida ta'lim jarayonining zamon talablariga mos keladigan o'quv dasturlar va adabiyotlar bilan ta'minlanishiga ham katta etibor qaratilmoqda. Ayniqsa pedagog kadrlarning malakalarini oshirish va ularni qayta tayyorlash bugungi kunda asosiy etiborda bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar integratsiyasidan samarali foydalanish orqali online darslar, audio-vizual darsliklar, mobil ilovalar yordamida milliy musiqa o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Yosh avlodga internet platformalar orqali maqom, xalq qo'shiqlari, cholg'ularni o'rgatish tajribalari oshmoqda. Xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashda milliy musiqa san'atini xorijiy davlatlarda targ'ib qilish, musiqachilarni xalqaro festivallarda qatnashishga tayyorlash yo'lga qo'yilgan. UNESCO tomonidan maqom, baxshichilik kabi meroslar nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan.

Rivojlanish va yuksalishda faqat yutuqlarni maqtanish emas kamchiliklarni ham o'z vaqtida bartaraf etib borilsa har qanday soha ilg'orlab boraveradi.

So'nggi yillarda dasturlar modernizatsiya qilinmoqda, lekin amaliyotda ba'zi muammolar saqlanib qolgan: uslubiy materiallar yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalardan kam foydalanish, ba'zi hududlarda tajribali ustozlarning tanqisligi, musiqa maktablarining moddiy-texnik bazasi yetarli emasligi, malakali o'qituvchilarning tanqisligi, zamonaviy uslubdagi metodikalarning kamligi, ayrim hollarda tanqidiy baholash mexanizmi yetarli emas va tijorat yo'nalishlari ko'proq qo'llab-quvvatlanib, musiqaning akademik va xalqona yo'nalishlari biroz e'tibordan chetda qolmoqda.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki Milliy musiqa — xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy boyligi, madaniy o'zligining yorqin ifodasidir. Hozirgi globallashuv sharoitida bu bebaho merosimiz bir qator jiddiy muammolarga duch

kelmoqda. Jumladan, yosh avlod orasida milliy musiqaga bo‘lgan qiziqishning kamayishi, xorijiy musiqaning keskin kirib kelishi, an’anaviy ijrochilik maktablarining zaiflashuvi va professional ta’lim tizimida milliy musiqaga yetarli e’tibor berilmasligi asosiy muammolar sirasiga kiradi.

Ushbu holat milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy mustahkamlik nuqtai nazaridan xavf tug‘diradi. Shu sababli, milliy musiqani targ‘ib etish va uni yangi avlod qalbiga singdirish bo‘yicha tizimli va innovatsion yondashuvlar zarur. Jumladan, ta’lim tizimida milliy musiqaga oid darslar va amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish, ommaviy axborot vositalari orqali milliy musiqiy merosni keng targ‘ib qilish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosda milliy san’atimizni namoyish etish kabi chora-tadbirlar dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa sohasidagi mavjud muammolarning samarali yechimlari nafaqat madaniyatimizni boyitadi, balki jamiyatning ma’naviy yuksalishiga ham xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror taraqqiyot va madaniy merosning davomiyligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir.

Yuqoridagi kamchilik va holatlarni inobatga olgan holda quyidagilarni; Musiqa maktablarida raqamli texnologiyalar asosida darslar tashkil etish, har yili milliy musiqa o‘qituvchilari uchun seminar-treninglar o‘tkazish, talantli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun stipendiya va grantlar joriy etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, pedagogik kadrlarni malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish taklifini beraman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. A.Jabborov “Musiqali drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida”. -T.: G‘.G‘ulom, 2000 y.
2. Oyto‘rayev.A. XX-asr o‘zbek musiqa tarixi “Innovations in Science and Technologies” scientific electronic journal.ISSN;3030-3451. (140-143)bet.

3. Ergasheva Ch. “Bastakorlik ijodiyotida nazira” // Guliston. Ijtimoiysiyosiy, ilmiy-badiiy, madaniy-ma’rifiy jurnal, - Toshkent, 2010/1. 37-b.
4. Ibrohimov O. O‘zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism (metodik tavsiyalar) –
5. Toshkent: O‘zR XT o‘quv metodik markazi, 1994, 62-b.